

**Sovetlar davrida Mir Arab madrasasida  
ta'lim dasturi qanday bo'lgan?**

***Arslonbekov Nursulton Azizbek o'g'li***

*Qarshi davlat universiteti doktoranti (PhD)*

[arslonbekovnursulton@gmail.com](mailto:arslonbekovnursulton@gmail.com)

***Annotatsiya :*** Maqolada sovetlar davrida diniy kadrlarga ehtiyoj tufayli Mir Arab madrasasining Buxoroda tashkil etilishi va bu ishda Moskvaning talablari doirasida sovet siyosatiga mos ta'lim dasturining yaratilishi hamda shunday og'ir vaziyatda Diniy Nazoratning harakatlari bilan eng munosib, ilmi kadrlarni Buxorodagi madrasag jalb qilinishi haqida manbalar va arxiv ma'lumotlari asosida fikrlar yuritiladi.

***Kalit so'zlar:*** diniy bilim yurtlari, muftiy, mudarris, xadis, tafsir, fonetika, arab tili.

O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari diniy boshqarmasining faoliyati doirasida diniy ta'limni yo'lga qo'yish, sovet hukumati bilan ishlay oladigan va bir vaqtda xalq bilan muloqot qiladigan kuchli bilim va salohiyatga ega bo'lgan kadrlarga ehtiyoj diniy bilim yurtlari ochishni zaruratga aylantirdi. Albatta bunday nozik masalani Markaz juda yaxshi tushunardi va shu sababli, diniy ta'lim muassasalariga ehtiyoj bormi agar bo'lsa, bu masalaga qanday yondashish kerakligi haqida O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari diniy nazoratiga SSSR XKS huzuridagi diniy ishlar bo'yicha kengash raisining o'rinbosari K.Ya.Pugo diniy bilim yurtlarining ochilishi, faoliyati bilan bog'liq aniq ma'lumotlarni so'rab, 1944 yilning oktyabr oyida quyidagi savollar berildi:

1. Diniy bilim yurtini ochish masalasi kim tomonidan, qanday maqsad vazifalar ilgari surilgan holda qo'yildi?
2. Ushbu muassasada qancha o'quvchi qabul qilinishi ko'zda tutilmoqda?

3. Qanday dastur asosida o'qitish tashkil etiladi?
4. O'qish muddati qancha vaqt davom etadi?
5. O'qish uchun bino va yotoqxon mavjudmi ?

Shu kabi savollar berilib, aniq javoblar talab qilinadi.[1-44v].

Vaziyatni inobatga olib, berilgan bu imkoniyatdan foydalangan Diniy Nazorat darhol ta'lim dasturi hamda uning maqsad vazifalarini o'z ichiga olgan o'quv rejasini ishlab chiqadi.

1945 yil mart oyida O'zbekiston SSSR XKS qarori asosida O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari diniy boshqarmasi raisi muftiy Eshon Boboxon ibn Abdulmajidxon boshchiligidagi tashkiliy qo'mita tuziladi. Ushbu tashkiliy qo'mitaning tavsiyasidan so'ng oradan ikki oy o'tib, may oyida respublikaning Toshkent va Buxoro shaharlarida 2ta diniy bilim yurti - Baroqxon va Mir Arab madrasalari ochiladi.

1945 yil 25 mayda SSSR XKS huzuridagi diniy ishlar kengashining raisi I.V.Polyanskiyga yozilgan maktubida: "ish boshlaydigan diniy bilim yurtlarida jami 90ta o'quvchi qabul qilinishi, ulardan Toshkentda - 30ta o'quvchi, Buxoroda - 60 o'quvchi bo'lishi" haqida xisobot beriladi. Berilgan xabarnomada endi ish boshlashi kutilayotgan bilim yurtlarining rejasini, ularda o'qitiladigan fanlar haqida ma'lumot keltiriladi.[2-115-116b]

Diniy o'quv yurtlarida quyidagi fanlar o'qitilishi rejalashtirilgan:

1. Qur'oni karimni o'rganish qoidalari;
2. Qur'on tavsifi;
3. Xadis ilmi;
4. Islom dini tarixi;
5. Fonetika, morfologiya, sintaksis;
6. Muxavvaratul arab (arab tili grammatikasi);
7. Hisob (matematika);
8. Geografiya;
9. Xusnixat;
10. O'zbek tili grammatikasi;

11.O'zbek adabiyoti.

Yuqoridagi fanlardan ko'rinib turibdiki, fanlar qadimiy an'analar asosida o'rta asrlarda shakllangan madrasachilik qolipiga asoslangan. Albatta madrasalarda diniy fanlar qatorida, zamonaviy fanlarni o'qitish ham nazarda tutilgan. Diniy ta'lim muassasalarini bitirgan talabalardan ijtimoiy va tabiiy fanlarni, kamida 1ta xorijiy tilni (rus tili asosiy fan sifatida bo'lgan) bilish talab qilingan.[3 - 135b]

Madrasalarga qabul qilishda talabalarning oilasida sovetlarga qarshilar bo'lganmi, fuqarolikka egami (18yoshdan yuqori bo'lishi talab qilingan), oilasida dindorlar bormi( agar bo'lsa ularning o'qishga ruxsat olishi qiyin bo'lgan) kabi talablar bilan bir qatorda sovet respubliklarining har biriga ajratilgan maxsus kvota asosida o'qishga qabul qilingan. Ushbu madrasalarda tahsil olish muddati 9yil bo'lib, o'rta diniy ma'lumot oluvchilar 4yillik o'quv reja asosida ta'lim olgan.

Diniy o'quv yurtlari uchun Toshkentdagi Ko'kaldosh va Buxorodagi Mir Arab madrasalari binolari o'quv binosi sifatida; Toshkentdagi Baroqxon va Buxorodagi Chor Bakr madrasalari binolari maishiy xizmat hamda yotoqxona uchun ajratildi. Baroqxon madrasasi - 26xona, darsxona va masjid iborat bo'lib, keyinchalik dinga nisbatan siyosatning keskinlashuvi ortidan 1962 - yilda Toshkent o'pka kasalliklari sanatoriyasiga aylantiriladi. Chor Bakr madrasasi - ikki qavatli, 21xona va 2ta masjid iborat bo'lib, madaniy oqartiruv uchun ko'zi ojizlar jamiyatiga berib yuboriladi.[4-68b]

Yangi ochilgan madrasalar uchun ustozlar diniy nazorat tarafidan qator talablardan kelib chiqib tanlab olinadi. Ustoz domlalarining har biri xalq orasida obro'ga ega, diniy ta'lim olgan fidoyi insonlar edi. Ulardan Eshonjon Mahmudxo'ja, Muhiddin Maxsum Mavlon, Muhammad Majidxon Baxodirxon, Xoji Akbarxon Muhiddinxon, Sharifqori Latipov, Mulla Muhammad Aminjon Maxsum o'g'li, Mulla Solih domla Mirzayev kabilar turli diniy fanlardan dars bersalar, filologiya fanlari professori Abdurahmon Sa'diy, Vodud Faxriddinov va Mulla Abduqodirlar madrasa mudarrisligiga nomzod etib belgilandilar[5 - 273b].

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, madrasalar ochishdan ko'zlangan asosiy maqsad, butun sobiq SSSR diniy idoralari va masjidlar uchun malakali,

puxta bilimga ega bo'lgan, keng fikrli kadrlarni tarbiyalash edi. Yillar davomida Markaz u yoki bu tarzda madrasa ishlariga aralashib, o'quv rejalarini sovetcha ruhda bo'lishiga harakat qilgan bo'lsada, u yerdagi ta'lim tizimi sof sharqona bo'lib qolaverdi va davrining eng ko'zga ko'ringan keyinchalik mustaqil MDH mamlakatlarida ulkan obro'ga ega siyosat va din xodimlarini tarbiyaladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston MDA, 2456 - fond, 1- ro'yxat, 55-ish, 44-varaq.
2. Salmonov A. "O'zbekistonda musulmon diniy muassasa va tashkilotlar faoliyati tarixi": Toshkent., 2008.B 115 - 116.B
3. Qurbonov S. Ma'rifat va din. - Toshkent: O'zbekiston,1980.B.135.
4. Ergashev F.Yoshlarni ateistik ruhda tarbiyalash. - Toshkent: O'zbekiston,1974.B.68.
5. Usmonxo'jayev A. Dinimiz fidoyilari. -Toshkent: Tafakkur, 2011.